

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli: "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-sonli Qarori
3. Бекешева, С. Е. (2020). Разработка маркетинговой стратегии продвижения продукции на рынок. *Молодой ученый*, (14), 289-292.
4. O'G'Li, B. S. K., & O'G'Li, B. B. K. (2023). RAQAMLI MARKETING ASOSIDA MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BRENDINI YARATISH VA ILGARI SURISH. *Journal of marketing, business and management*, 1(12), 34-37.
5. Эргашева, А. (2023). MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI SOTISHDA RAQAMLI MARKETING O'RNI. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 31(31).
6. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 154-157.
7. Murod, N. I. N. T. E. (2023). IMPROVING THE USE OF MARKETING STRATEGIES OF ENTERPRISES IN SOCIAL NETWORKS. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(12), 143-149.
8. Ortiz-Cordova, A. and Jansen, B. J. (2012) Classifying Web Search Queries in Order to Identify High Revenue Generating Customers Archived March 4, 2016, at the Wayback Machine. *Journal of the American Society for Information Sciences and Technology*. 63(7), 1426 – 1441..
9. Radjabova, S. N. (2023). Network Analysis Of Social Media Research In Entrepreneurship Development. *Qo 'Qon Universiteti Xabarnomasi*, 1, 12-15.
10. Ravshanova, G. R. (2023). Ways of Managing and Improving the External Economic Activity of the Enterprise in the Digital Economy. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(2), 1-3.
11. Sharopova, N. (2023). Tadbirkorlik Faoliyatida Raqamli Marketing Tadqiqotlarining Zarurati. *Engineering problems and innovations*..

XIVA HUDUDI GEOLOGIK VA GIDROGEOLOGIK SHAROITINI SEYSMIK XAVF NUQTAI NAZARIDAN O'RGANISH.

B.S.Raxmonov, , R.E.Savutov, S.Y Quromboev .

Urganch davlat universiteti,

B.Kattakishiev-Jizzax Politehnika instituti.

Annotatsiya: Maqolada Xivaning geologik va gidrogeologik sharoitlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan instrumental kuzatuvlar natijalari bo'lajak zilzilalar paytida mintaqa intensivligining o'sishini baholash uchun taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: zilzilalar, intensivlik. seysmik ta'sir, intensivlikning oshishi. geologik va gidrogeologik sharoitlar, seysmik xavf.

Xorazm xududi Turon tektonik plitasining markaziy qismida joylashgan. Bu platforma geologik jihatdan yosh platformalar tarkibiga kiradi. Shuning uchun ham xudud faol tektonik jarayonlar platformalari turkimiga kiradi.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo planetamizning eng faol seysmik zonalaridan biri bo'lib, bu yerda juda kuchli zilzilalar sodir bo'ladi.


Olimlarning ta'kidlashicha, Xorazm hududida ko'p marta kuchli zilzilalar sodir bo'lgan va bulardan ayrimlari qadimdan to 1975 yilgacha Sobiq Ittifoq hududida sodir bo'lgan kuchli zilzilalar yangi katologiga kiritilgan (Ma'sul redaktor N.V Kondratev,

N.V.Shebalin, M. “Fan” nashriyoti, 1977 y. 535 bet). Seysmik rayonlashtirish materiallariga asosan Xorazm hududi kuchli (aktiv) seysmik hududga (qo‘shni seysmik aktiv hududlar seysmik ta’siri xisobiga) kiritilgan.

Ushbu maqolada Xiva xududi geologik va gidrogeologik sharoiti seysmik xavf nuqtai nazaridan muxandisona tahlili natijalari keltirilgan.

Planetamizda sodir bo‘lgan zilzilalar oqibatlarini o‘rganish natijalari zilzilalarning daxshatli talofat keltiruvchi samarasi (effekti) hudud grunt geologik va gidrogeologik sharoitiga bog‘liq bo‘lishini tasdiqladi (er osti suvlari sathi, asos grunti, namlik darajasi va h.k.)

Xiva xududi reliefi tekis joylashgan bo‘lib, bu hududda hech qanday balandlik yoki tog‘lar yo‘q (1-rasm). Hudud gruntlari tarkibi asosan barxan qumlari, supes, va suglinoklardan iborat [1].



1-rasm. Xiva shahri(tumani)ning 3o‘lchamli xaritasi ko‘rinishi.

Xududning asosiy qismini geologik va gidrogeologik jihatdan tuzilishi quyidagicha: suglinok (taxminan 3m.): loy (5.0m.) : qum > 10m; supes (2.5)m : loy (2.5): loysimon qum (2.0): qum > 8.0m.; va nihoyat, qum.

Asos grunt-muhitining fizik xarakteristikalaridan biri bo‘lgan seysmik bikrlilik grunda seysmik bo‘ylama to‘lqinlar tarqalish tezligi V_p xamda to‘lqin tarqaluvchi grunt zichligi ρ ko‘paytmasiga bog‘liq bo‘ladi.

Muxandislik seysmologiya fanidan ma’lumki, akustik bikrligi katta bo‘lgan qatlam ustida yumshoq qatlam joylashgan bo‘lib, bu yumshoq qatlam bino yoki inshootlar asosini tashkil etadigan bo‘lsa, bino yoki inshootga seysmik ta’sir intensivligida orttirma vujudga keladi.

Mazkur ishda seysmik intensivligi ortirmasi ΔI quyidagi formuladan aniqlandi:

$$\Delta I = 1.67 [\lg(V_0 \rho_0) - \lg(V_n \rho_n)];$$

Bu yerda V_0 seysmik to‘lqinlarning etalon grunda tarqalish tezligi, V_n – seysmik to‘lqinlardan o‘rganilayotgan grunda tarqalish tezligi, ρ_0 - etalon grunt zichligi, ρ_n - o‘rganilayotgan grunt zichligi.

Gidrogeologik sharoitning seysmik ta’sir intensivligiga bo‘ladigan ta’siri quyidagi (S.V.Medvedev formulasi) ifoda yordamida aniqlandi:

$$\Delta I = e^{-0,004h^2}$$

Seysmik ta’sir orttirmasi, bundan tashqari joyning relefiga, uning tektonik siniqqa nisbatan qanday joylashganligiga (yaqin yoki uzoq joylashganligi va sh.k.) ham bog‘liq bo‘ladi. Xiva xududi nisbatan tekis relefdan iborat bo‘lgani sababli bu omilni hisobga olmasak ham bo‘ladi.

Shuning uchun mazkur maqolada, xudud uchun seysmik ta’sir orttirmasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida geologik va gidrogeologik sharoitlar tahlil etilgan.

Xiva xududi geologik va gidrogeologik sharoiti uchun seysmik ta’sir orttirmasini umumiy qiymati quyidagi ifoda yordamida baholandi [2,3]:

$$\Delta I = 1,67 [\lg(V_0 \rho_0) - \lg(V_n \rho_n)] + e^{-0,004h^2}$$

Quyida soha mutaxassislari va olimlar tomonidan hududdagi geologik va gidrogeologik sharoitlarni o'rganish asosida kuzatuvlar natijalari grafik shaklida keltirildi.

Kuzativ ishlari Xiva tumanining turli nuqtalarida olib borilgan bo'lib, yilning sug'orish mavsimidagi eng noqulay sharoit nazarda tutilgan va besh yillik o'rtacha qiymat grafigi tuzilib umumlashtirilgan.

Kuzatuv natijalari grafik shaklida quyida 2-4-rasmlarda keltirilgan.



2-рasm. Кuzatuv punkti Xiva tumanida joylashgan.

Grunt sharoiti: suglinok, qatlam qalinligi 5,0m.



3-рasm. Кuzatuv punkti Xiva tumanining Xiva shahriga yaqin stansiyasida joylashgan.

Grunt sharoiti: to'liq qumdan iborat.



3-рasm. Кuzatuv punkti Xiva tumani «Ogaxiy» sh/x hududida joylashgan.



4-рasm. Кuzatuv punkti Xiva shahri badiiy-keramika zavodiga yaqin hududda joylashgan.

Grunt sharoiti: qum qatlami >10,0m.

Bu yerdan ko'rinib turibdiki, Xiva hududida yer osti suvlari sathi 5,15m. dan 0,56m.gacha diapazonda o'zgaradi.

Ko'p yillik zilzila oqibatlarini o'rganish natijasida prof.S.V.Medvedev quyidagi xulosaga kelgan va shu tadqiqotlar asosida yuqoridagi empirik ifoda taklif etilgan: yer osti suvlari sathi 10,0m. va undan chuqur joylashsa, bunda ularning joylashish chuqurligi zilzila intensivligiga ta'sir qilmaydi; yer osti suvlari sathi 10,0m. dan sayozlashib borsa, u holda ularning joylashish chuqurligi zilzila intensivligiga ta'sir qila boshlaydi; yer osti suvlari joylashish sathi poydevor joylashish chuqurligidan (poydevor tag yuzasidan) 4,0m da bo'lsa, u holda seysmik ta'sir orttirmasi 0,5 ballga teng bo'ladi; poydevor tovonining bevosita tag yuzasida supes, suglinok, qumloq grunt yoki chaqiq-tosh bo'lsa, u holda seysmik ta'sir orttirmasi 1ballga teng bo'ladi.

Ushbu ilmiy izlanishlarda yilning qaysi fasli, sutkaning qaysi vaqtida sodir bo'lishiga qarab, bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalar ta'siridan iqtisodiy hamda ijtimoiy zararining taxmini ko'lam baholangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda geologik sharoitni hisobga olsak, Xiva hududida seysmik ta'sir orttirmasi kamida 2 ballga teng bo'lishi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Асанов А., Памятники архитектуры средневекового Хорезма. Т.:Фан, 1971, 108 стр.
2. Медведев С.В., Шебалин Н.В. С землетрясением можно спорить. М.: Наука, 1967, 132 стр.

TIBBIY TASVIRLARNI TAHLIL QILISHDA SU'NIY INTELEKTNING QO'LLANISHI

Sabitova Nazokat


Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari

(n.sabitova@tuit.uz, +99897352255)

Annotatsiya: Su'niy intellekt bemorga tashxis qo'yish, davolashdan tortib bemorni boshqarish va ma'muriy vazifalargacha bo'lgan sog'liqni saqlashning barcha jabhalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Suniy intellekt kuchidan tog'ri foydalangan holda, tibbiyot xodimlari bemorlarning natijalarini yaxshilashlari, samaradorlikni oshirishlari va oxir-oqibat hayotni saqlab qolishlari mumkin. Bunda tibbiy tasvirlar bilan ishlashning ahamiyati yuqori va ushbu tasvir sifatini oshirish, ularga ishlov berish orqali biz diagnostika jarayonini yengillashtirishimiz va samaradorlikni oshirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Tibbiy tasvirlar, Su'niy intellekt, Mashinali o'qitish, Konvolyutsion neyron tarmoqlari

Tibbiy tasvirlash deganda sog'liqni saqlash sohasida tananing ichki qismini vizual tasvirlarini yaratish uchun qo'llaniladigan turli xil texnika va texnologiyalar tushuniladi. Ushbu tibbiy tasvirlar tashxislash, kuzatish va davolash uchun zarurdir. Tibbiy tasvirlash tibbiyot xodimlariga tanaga jarohat beradigan muolajalarsiz tanani ko'rish imkonini beradi, bu organlar, to'qimalar va suyaklarning tuzilishi va funktsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.



Rasm 1. Tibbiy tasvir turlari

Tibbiy tasvirning turli xil turlari mavjud, jumladan:

1. X-nurlari: suyaklar va ba'zi organlarning tasvirlarini yaratish uchun elektromagnit nurlanishdan foydalanish.
2. Kompyuter tomografiyasi (KT yoki CAT skanerlash): organlar va to'qimalarning batafsil kesma tasvirlarini yaratish uchun turli burchaklardagi rentgen nurlarini birlashtirish.
3. Magnit-rezonans tomografiya (MRI): Yumshoq to'qimalar, organlar va suyaklarning batafsil tasvirlarini yaratish uchun kuchli magnitlar va radio to'lqinlardan foydalanish.
4. Ultratovush: akusherlikda va yurak va qorin boshlig'idagi organlarni tasvirlashda ishlatiladigan ichki tana tuzilmalarining tasvirlarini yaratish uchun yuqori chastotali tovush to'lqinlaridan foydalanish.
5. Yadro tibbiyotining tasviri: organlar va to'qimalarning funktsiyasi va tuzilishini ko'rish uchun radioaktiv moddalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
6. Endoskopik tasvirlash: tabiiy teshiklar yoki kichik kesmalar orqali ichki organlarni vizualizatsiya qilish uchun endoskoplardan foydalanish.

Tibbiy tasvirlar kasalliklarga tashxis qo'yish, jarohatlar darajasini baholash, davolash usullarini rejalashtirish va tananing davolanishga bo'lgan munosabatini kuzatishda hal qiluvchi